



AYOLLARNING TA'LIM OLISHIDA MASOFAVIY TA'LIMNING RO'LI

Alisherova Irodaxon Ja'surbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti 2-kurs talabasi

@alisherovairoda3@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda masofaviy ta'limning ayollarning ta'lim olishidagi o'rni va uning jamiyat rivojiga ta'siri berilgan. Shuningdek, bunda ta'limning teng imkoniyat yaratish, moslashuvchanlik va vaqtni boshqarish, raqamli savodxonlikni oshirish va ayollarning ijtimoiy-siyosiy to'siqlarini kamaytirish kabi ko'plab imkoniyatlar va ayollarning ilm olish yo'lidagi to'siqlar va ularning yechimlari tahlili berilgan.*

Kalit so'zlar: *masofaviy ta'lim, raqamli savodxonlik, ta'lim olish, ayollar ta'limi, onlayn o'qish, ta'lim imkoniyatlari, raqamli ta'lim, ayollar salohiyati, imkoniyatlar, zamonaviy ta'lim.*

Abstract: *This thesis examines the role of distance education in women's access to education and its impact on societal development. It also analyzes various opportunities such as ensuring equal access to education, flexibility and effective time management, enhancing digital literacy, and reducing socio-cultural barriers faced by woman. In addition, the study explores the obstacles woman encounter in pursuing education and proposes possible solutions to these challenges.*

Key words: *distance education, digital literacy, access to education, women's education, online learning, educational opportunities, digital education, women's potential, opportunities, modern education.*

Аннотация: *В данной тезисе рассматривается роль дистанционного образования в получении образования женщинами и его влияние на развитие общества. Также анализируются такие возможности, как обеспечение равного доступа к образованию, гибкость и эффективное управление временем, повышение цифровой грамотности, а также снижение социально-культурных барьеров, с которыми сталкиваются женщин. Кроме того, рассматриваются препятствия на пути получения образования женщинами и предлагаются пути их преодоления.*

Ключевые слова: *дистанционное образование, цифровая грамотность, получение образования, образование женщин, онлайн-обучение, образовательные возможности, цифровое образование, потенциал женщин, возможности, современное образование.*



Hozirgi kunda jadal rivojlanib va globallashib borayotgan jamiyatimizda ta'limga bo'lgan e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Ayniqsa hozirgi kunda gender tengligi tufayli mamlakatimizdagi ayol-qizlarimizning ham ta'lim olishi uchun ko'plab imkoniyatlar va turli xil ta'lim shakllari yaratilib borilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri yurt taraqqiyotini va kelajagini rivojlantirish ertamiz egalari bo'lgan farzandlarimizning qo'lidadir, farzandlarimizning tarbiyasiga esa, shubhasiz, ayol-qizlarimiz mas'uldir. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 17 milliondan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida, ayollar ta'limiga alohida e'tibor qaratish, ularning bilim va salohiyatini oshirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri ekanini ko'rsatadi.

Masofaviy ta'limning ayollar ta'lim olishidagi ro'li va uning jamiyat rivojiga ta'siri bir qancha muhim jihatlar orqali namoyon bo'ladi. Quyida bir nechta dolzarb jihatlar – ta'limga teng imkoniyat yaratish, moslashuvchanlik va vaqtni boshqarish, raqamli savodxonlikni oshirish, shuningdek, ayollarning ijtimoiy-madaniy to'siqlarini kamaytirish – alohida talqin qilinadi.

Ko'plab ayollar ta'lim olish jarayonida bir qancha muammo va to'siqlarga duch kelishadi. Bu moddiy tomonlama yoki oilaviy mas'uliyat, hududiy cheklov, ayrim ijtimoiy-madaniy qarashlar bo'lishi mumkin. Bunday holatda masofaviy ta'lim juda ham qulay imkoniyat yaratib beradi. ¹Vazirlar mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 344-son qarorining 11-bandiga binoan, yosh bolali xotin-qizlar o'z xohishlariga ko'ra oliy ta'lim muassasasidagi tahsillarini masofaviy yoki sirtqi shaklga o'tkazishlari mumkin. Bu degani onlayn ta'lim orqali ayol-qizlar qayerda yashashidan qat'iy nazar yoki farzand tarbiyasi bilan shug'illanayotgan bir paytda ham bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Misol uchun onlayn kurslar yoki virtual universitetlar orqali ayol-qizlarimiz yuqori natijalarni qo'lga kiritadilar. Natijada esa ayollarning oliy va kasbiy ta'limga erishish darajasi oshadi.

Qanday qilib ayollar uy va oilaviy majburiyatlarni bajarib, bilim olishni davom ettirishi mumkin? Bu savolga masofaviy ta'limning moslashuvchanlik va vaqtni boshqarish imkoniyati orqali javob topish mumkin. Ko'plab ayollar uy yumushlari, oilaviy majburiyatlar bilan band bo'ladi, shu sababli masofaviy ta'lim ularning vaqtini o'z sharoiti va xohishiga ko'ra rejalashtirish va ta'limni uy sharoitida o'quv binosiga bormagan holatda davom ettirish imkoniyatini yaratib beradi. Bunga misol tariqasida videodarslar, o'z-o'zini boshqaruvchi platformalarni aytishimiz mumkin.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar kundan kunga rivojlanib globallashib bormoqda. Shu boisdan, jamiyatimizdagi har bir fuqaro raqamli texnologiyalardan habardor bo'lishi lozim. Masofaviy ta'lim ham o'zidan o'zi mana shu raqamli texnologiyalarga bog'liq. Ayol-qizlar onlayn ta'lim orqali raqamli savodxonliklarini oshirish, kompyuter va internet ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga ular digital platformalarda ishlab, axborot ko'nikmalarini

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03-iyun 2025-yildagi 344-son — Yosh bolali xotin-qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida.



oshirib oladilar. Misol qilib aytganda turli xil elektron kitoblar, interaktiv kurslar, forum va chatlar orqali bilim almashishlari mumkin.

So'nggi yillarda ayol-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bu esa ayollarimizning jamiytdagi rolini rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy to'siqlarini olib tashlash va bilim olish imkonlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Maktabdan boshlab oliy ta'limgacha ayol-qizlar uchun turli grantlar va stipendiyalar ajratilib kelmoqda. Shu bilan birga, turli xil treninglar va onlayn kurslar tashkil qilinmoqda. Bunga O'zbekiston yosh qizlari uchun "Digital skills for Women" kabi kurslar yaqqol misol bola oladi. Ba'zi bir qizlarga masofa to'sqinlik qilishi mumkin, onlayn darslar esa bu muammoga yechim bo'la oladi. Misol qilib aytganda, cheka qishloqlarda yashovchi qizlar Coursera, edX va shunga o'xshash turli xil ta'lim platformalarda mashg'ul bo'lishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda, nodavlat tashkilotlar va hukumatimiz tomonidan ayollarni kasbiy rivojlanish, tadbirkorlik va startup loyihalarga jalb qilishimiz mumkin.

Masofaviy ta'lim nafaqat ayollarga, balki jamiyatimiz rivojiga, kelajagiga juda katta ta'sir ko'rsata oladi. U ayollarimizda mavjud bo'lgan muammolarga yechim topishda muhim ro'l o'ynadi. U ta'limning teng imkonini yaratish, moslashuvchanlik va vaqtni boshqarish, raqamli savodxonligini oshirish, ayollarimizning ijtimoiy-madaniy to'siqlarini kamaytirishda ko'plab hissa qo'shadi. Natijada ayol-qizlar shaxsiy va kasbiy jihatdan yetuk bo'lishadi. Shu tariqa, ayollar jamiyatda o'z salohiyatini namoyon etadi va ularning bilimga asoslangan ishtiroki mamlakatning barqaror rivojiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Masofaviy ta'limni tashkil etish va rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. — Toshkent, 2020–2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2021-yil 3-iyundagi 344-son qarori — Yosh bolali xotin-qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida.
3. "Pedagogik mahorat" ilmiy-amaliy jurnali. Masofaviy ta'lim va zamonaviy ta'lim texnologiyalariga oid maqolalar. — Toshkent, 2021–2023.
4. "Ta'lim va innovatsiya" ilmiy-amaliy jurnali. Ayollar ta'limi va raqamli ta'lim masalalariga bag'ishlangan maqolalar. — Toshkent, 2021–2023.